

Samarqand davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar» kafedrası katta o'qituvchisi G.A.Suvonovning «Botanika va o'simliklar fiziologiyasi» fanidan Biotexnologiya fakultetining 103-guruh Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi" yo'nalishi talabalari uchun "Bargning vazifasi, tuzilishi, tiplari va ularning insonlar va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati" mavzusidagi ma'ruza mashg'uloti ishlanmasiga

TAQRIZ

Botanika fani biologiyaning eng qadimgi fanlaridan sanaladi. Bu fanning keng rivojlanishi natijasida ko'plab yangi sohalarni ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. O'simliklar seleksiyasi, introduksiyasi, farmakologiya, biotexnologiya kabi fanlar bilan bir qatorda dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun zng muhim o'rganilishi kerak fanlardan biri bo'lib kelmoqda.

Ushbu ma'ruzada o'simliklarning asosiy vegetativ organlaridan biri bo'lgan bargning morfologik va anatomik tuzilishi, uning asosiy vazifalari — ya'ni fotosintez, nafas olish va transpiratsiya jarayonlari keng yoritib berilgan. Muallif ma'ruzani zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tayyorlab, tabiiy misollar, illyustratsiyalar va amaliyot bilan bog'liq tushunchalar bilan boyitgan.

Barg turlarining xilma-xilligi va ularning ekologik moslanish xususiyatlariga oid ma'lumotlar ilmiy manbalarga tayanib yoritilgan bo'lib, bu talabalarning tabiatdagi barg strukturasi va funksiyalarini chuqur anglashlariga yordam beradi.


Ma'ruzada bargning inson hayoti va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, ya'ni oziq-ovqat, dorivor va xomashyo sifatidagi qiymati haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Taqdimot uslubi tushunarli, tizimli va metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan.

Mazkur ishlanmada dastlab mavzuni o'qitish texnologiyasi batafsil yoritilgan ya'ni darsning maqsadi, dars bayoni savol va topshiriqlar keltirilgan. Oxirida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib bilimni mustahkamlovchi savollar va topshiriqlar o'rin olgan. Yangi adabiyotlardan foydalangan.

G.A.Suvonova tomonidan tayyorlangan ushbu ma'ruzasi ta'limiy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, talabalarda botanika va o'simlik fiziologiyasining fanining o'simliklar morfologiyasi qismidagi barg tuzilishi, funksiyalari haqida mukammal bilim va ko'nikmalar hosil qiladi hamda muhim ahamiyatga ega va talabalar bilim ko'nikmalarini boyitishda xizmat qiladi.


SamDVMChBU, "Biotexnologiya"

kafedrası b.f.f.d.PhD



u. oza

Azamatov Sh.U



Samarqand davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar» kafedrasida katta o'qituvchisi G.A.Suvonovning «Botanika va o'simliklar fiziologiyasi» fanidan Biotexnologiya fakultetining 103-guruh Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi" yo'nalishi talabalari uchun "Bargning vazifasi, tuzilishi, tiplari va ularning insonlar va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati" mavzusidagi ma'ruza mashg'uloti ishlanmasiga

TAQRIZ

O'simliklarning tuzilishini, ularning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarini, o'simliklarning o'sish va rivojlanishda bo'ladigan hayoti ularning kelib chiqishini, yer yuzida tarqalish qonuniyatlarini hamda o'simliklar dunyosini ularning yaqin va uzoq belgilariga asoslanib malum bir sistemaga solishii va nihoyat o'simliklardan har taraflama foydalanish hamda ularni muhofaza qilish yo'llarini Botanika va fiziologiya fani orqali o'rganiladi.

G.A. Suvonovning "Bargning tuzilishi, funksiyalari, turlari va inson hamda qishloq xo'jaligi uchun ahamiyati" mavzusidagi ma'ruzasi botanika va o'simliklar fiziologiyasi fanining muhim bo'limiga bag'ishlangan bo'lib, o'quv jarayonining ilmiy, nazariy va amaliy jihatlarini qamrab olgan.

Ma'ruzada o'simliklarning asosiy vegetativ organlaridan biri bo'lgan bargning morfologik va anatomik tuzilishi haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Bargning tashqi va ichki tuzilishi, ya'ni epidermis, mezofill, o'tkazuvchi bog'lamlar va xloroplastlarning vazifalari ilmiy asosda izohlangan.

Ma'ruzada barg turlarini morfologik belgilarga ko'ra xillari, ularning ekologik sharoitlarga moslanishini ham ilmiy asosda tahlil qilgan. Xususan, quruq iqlim sharoitida o'suvchi kserofit, nam muhitda o'suvchi gidrofit va mezofit o'simliklar barglarining tuzilishidagi morfologik farqlar aniq misollar bilan ko'rsatib berilgan.

Ma'ruzada bargning inson hayotidagi va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Barg — nafaqat fotosintez manbai, balki oziq-ovqat, dorivor, ozuqa va sanoat xomashyosi sifatida katta iqtisodiy ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan..

Ma'ruza materiallari ilmiy asoslangan, manbalarga tayanadi, tushunarli va uslubiy jihatdan talabalar uchun qulay shaklda bayon etilgan. Bu talabalarning nazariy bilimini mustahkamlab, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif mavzuni zamonaviy botanika fanining tendensiyalari va ekologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirib yoritgan. Ma'ruzaning mazmuni pedagogik jihatdan puxta ishlangan, slaydlar orqali vizual ma'lumotlar jozibador ko'rinishda taqdim etilgan, talabalar bilan muloqot va savol-javob jarayoni samarali tashkil etilgan.

Xulosa qilib aytganda, G.A.Suvonova tomonidan tayyorlangan ushbu ma'ruza darsi ishlanmasi amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, fanning o'quv dasturiga to'liq mos keladi, Ma'ruza ta'limiy, ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, talabalarning botanika va fiziologiya bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi kafedra miqyosida ochiq dars sifatida namoyon etishga munosib deb hisoblanadi.

TDIUSF, "Tabiiy, ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsenti, q.x.f.n.



E.I. Xamdamova